

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

«UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI» FANIDAN

**«TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI»
MAVZUSIDAGI**

REFERAT

Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi S.Obidova

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

Kafedra mudiri:

dots. A.Abdumannotov

Kurs ishi kafedraning 2013-yil ____ maydagi majlisida himoya qilindi va
_____ foizga baholandi.

Komissiya raisi:

A'zolari:

SAMARQAND – 2013

Reja

KIRISH

ASOSIY QISM

1. Ta'lim metodlarining mohiyati va vazifasi
2. Ta'lim metodlarini tasniflash
3. Ta'lim metodlari va vositalarining xususiyatlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, eng avvalo aholi turmush tarzi darajasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu vazifalarni samarali hal qilish yuksak ma'naviyatli, bilimli, rivojlangan davlatlar darajasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liqdir.

Xalqimizning intellektual va ma'naviy salohiyati mamlakatimiz kuch-qudratining muhim omili ekanligiga to'xtalib, Prezident I.A.Karimov Xalqaro Vestminster universitetining ochilish tantanasida so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Darhaqiqat, bizning bunday omilni hisobga olmaslikka haqqimiz yo'q. Chunki, o'z oldimizga qo'ygan yuksak vazifa va marralarga erishishda zamonaviy bilim va tajriba sohibi bo'lgan yangicha fikrlaydigan yoshlarimiz bizning tayanchimiz va suyanchimizdir, desak ayni haqiqat bo'ladi.

Oldimizda turgan buyuk vazifalarni yechishning asosiy omili, ularni hal qilishning yagona sharti tom ma'noda barkamol shaxsni, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Yurtimizning yorug' kelajagi, xalqimizning hyech kimdan kam bo'lmasdan farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan bu vazifalarni ado etish barchamizning insoniy burchimizdir... bugun Vatanimizga nafaqat yuqori malakali mutaxassislar, balki umumbashariy meros va qadriyatlarni zamonaviy bilim va tafakkur bilan boyitishga qodir huquqiy demokratik jamiyatda odamlarning ozod va erkin yashashini, mustaqil fikr yuritib, har tomonlama asoslangan qarorlar qabul qilishini hayotiy zarurat deb biladigan barkamol yoshlar kerak».

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milli dasturi»da pedagogik kadrlar yetishtiradigan ta'lim muassasalari oldiga pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ularni yangicha fikrlaydigan, umumbashariy meros va qadriyatlarni zamonaviy bilim va tafakkur bilan boyitishga qodir, huquqiy-demokratik jamiyatda yoshlarni ozod va erkin yashashini, mustaqil fikr yuritib, har tomonlama asoslangan qaror qabul qilishni hayotiy zarurat deb biladigan qilib yetishtirish vazifasi qo'yilgan.

Ushbu dolzarb masalalar asosida mazkur kurs ishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim metodlarini qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilgan muammo yuzasidan tadqiqotlar olib borish maqsad qilib qo'yilgan.

Tadqiqot maqsadi Ta'lim metodlari mohiyatini o'rganish va ta'lim metodlari va vositalarini guruhlash hamda tasnifini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlari va vositalari

Tadqiqot vazifalari:

- 1) Mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalar, ilmiy va o'quv adabiyotlar hamda internet manbalarini nazariy jihatdan o'rganish
- 2) Ta'lim metodlarining mohiyati va vazifasini o'rganish
- 3) Adabiyotlarni tahliliy o'rganish asosidla Ta'lim metodlarini tasniflash
- 4) Ta'lim metodlari va vositalarining xususiyatlarini ta'lim jarayonida qo'llanish shakllari asosida yoritish

Tadqiqotga metodologik asosi O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar; pedagogika, psixologiya va metodika bo'yicha ta'limni muammoli o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etishga oid xorijiy tajribalar, nazariyalar va konsepsiyalar, shuningdek, respublikamiz olimlarining qarashlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ta'lim sohasida ilgari surilgan g'oyalardan iborat.

ASOSIY QISM

1. Ta'lim metodlarining mohiyati va vazifasi

Metod (metod) - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "Metodos"- biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi

Ta'lim berish metodi - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li

Ta'lim berish metodi, ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Metodlar: ushbu ta'lim berish davridan chiqqanda ta'lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo'lgan ko'zlanayotgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Metodlarni tanlashning **asosiy qoidasi** → turlicha emas ta'lim berish maqsadiga mos kelishi

Metodlarga qo'yiladigan **asosiy talab** → natija beradigan, faqat bittasini qo'llash.

Metodning asosiy natijaviyligining mezonlari → belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamkorligi.

Ta'lim texnologiyasini loyihalashda metodni ongli tanlash, har birining imkoniyatlarini ko'ra bilish kerak

Metodni tanlab, o'qituvchi o'ziga savol berishni boshlaydi:

→ Metodni qo'llashdan so'ng natijalar qaysi sohalarda: Bilimlar sohasidami? Ko'nikmalardami? Malakalardami? Yoki ko'rsatmada ko'p bo'ladi.

→ Keyingi savol ta'lim berishning bajariladigan ishlar tartibiga taalluqli: "Talabalarning faolligi (tashabbus) qanday bo'lishi kerak?"

Yaxshi yoki yomon metodlar mavjud emas. Metodning natijaviyligini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa bo'yicha xulosa chiqarish mumkin.

Qanday qilib keng tarqalgan metodlar, jumladan aqliy hujum yoki guruhli munozara natijaviyligini o'quv mashg'ulotida yechiladigan topshiriqlar bilan bog'liqsiz, yoki aniq amaliy vaziyatni tahlil qilish va yechish (keys-stadi) metodining natijaviyligini, ushbu metod qo'llanilayotgan o'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalaridan uzilishda oldindan baholash mumkin.

Tajribalarning ko'rsatishicha, metodning **asosiy natijaviylik mezonlari** quyidagilar:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va iqtisodiyligi;
- uni qo'llashda soddalik va osonlik;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni ta'minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchliligini ta'minlay olishi.

Faol ta'lim berish metodi - ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag'batlantiruvchi metoddir. U yoki boshqa muammoni yechish to'g'risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi suhbat asosida quriladi

Eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan ta'lim metodlari quyidagilar hisoblanadi: *suhbat, bahs, o'yin, keys-stadi, loyihalar metodi, muammoli metod, aqliy hujum* va boshqalar hisoblanadi

Interfaol (Interactive) - suhbatli.

Interfaol ta'lim berish - suhbatli ta'lim berish, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi va kompyuterning o'zaro harakati amalga oshiriladi

Interfaollik ta'lim berish sohasida umuman yangi hodisa, bunga binoan ta'lim beruvchi:

- o'qituvchi, boshqa talabalar, ma'muriyat bilan faqat shaxsiy uchrashuv yo'li bilan emas, balki ta'lim jarayonining barcha subyektlari bilan faol o'zaro harakat qilishi mumkin;
- multimediali obyektlarni tahlil etish jarayonida ularning mazmuni, shakli, o'lchovi va rangini o'zgaruvchan boshqarish, ularni har tomondan ko'rib chiqish, shunga o'xshash boshqa harakatlarni bajarishni, eng ko'p ko'rgazmalilikka erishishda to'xtatish va xohlagan joyida yana ishga tushirishi mumkin.

Interfaollik daraja qancha yuqori bo'lsa, ta'lim berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi.

Pedagogikada ta'lim metodlarini tasniflash (tartiblashtirish, bir guruhga birlashtirish)ga turli yondashishlar yuzaga keldi. Ular tizimlashtirishni turli asoslarida tuzilgan.

Ta'lim metodlarini ta'limiy maqsadlarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi (o'rgatish) va ta'lim oluvchini (o'rganish) hamkoriyl faoliyatini yo'li sifatida ko'rsatish ular xususiyati va o'quv faoliyati natijalari bo'yicha quyidagicha guruhlashtirish imkonini beradi:

1-guruh: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi metodlar;


2-guruh: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi metodlar;

3-guruh: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi metodlar;

4-guruh: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4-darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi, metodlar.

2. Ta'lim metodlarini tasniflash

(ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkoriy faoliyatini tashkillashtirish yo'li va o'quv faoliyati natijalari asosida)



Ayni vaqtda pedagogik manbalarda «ta'lim metodi» tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Mazkur o'rinda ularning ayrimlarini keltiramiz:

Таълим методи – замонавий даражада ўқув- тарбиявий мақсадларга эришишга йўналтирилган педагог ва ўқувчиларнинг ўзаро боғлиқ фаолият усулларидир (В.И.Загвязинский)	Таълим методлари – ўқув жараёнининг мураккаб таркибий унсури (компоненти) бўлиб, ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятининг барча йўналишларини ёритишга хизмат қилади, улар ўртасида кўп сонли алоқа ва боғланишларни юзага келтиради (Г.И.Щукина)	Таълим методлари деганда ўқитувчининг ўргатувчанлиги ва ўқувчиларнинг ўқув материални эгаллашга йўналтирилган турли дидактик масалалар ечимини топишга оид ўқув- билиш фаолиятларини ташkil этиш усуллари тушунилади (И.Ф.Харламов)	Таълим методи – белгиланган маъсадга эришишни таъминловчи алгоритм лаштирилган, муайян мазмунга эга ҳаракатлар тизимидир (П.И.Подласый)
---	---	--	--

«Таълим методи» тушунчасининг моҳиятини ёритувчи қарашлар

Ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Ta'lim metodlari tizimida og'zaki bayon qilish metodlari muhim o'rin tutadi. Og'zaki mashqlardan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizgina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish reseptorlari yordamida o'zlashtiriladi. Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan «Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi» maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Tasvir (illyustrasiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustrasiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

Amaliy ishlar metodlari o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Amaliy ishlar metodi – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi.

Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Yozma mashqlar – ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlar ham yozma ishlar bilan o'xshash jihatlarga ega bo'lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta'lim)da keng ko'lamda foydalaniladi.

Ta'lim metodlari tizimi:

I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'qishga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar	O'qish va mehnatda burch hamda javobgarlikni rag'batlantiruvchi metodlar	Mehnatga va muayyan kasbga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar
- biluv o'yinlari; - o'quv bahsi; - hissiy-axloqiy kechinmali vaziyatlar yaratish; - appersepsiyali (idrokning tajribaga bog'liqligi) vaziyatlarni yaratish; - biluv yangiliklari vaziyatlarini yaratish	- o'qish va mehnatning muhimligiga ishontirish; - talablarni ifodalash; - talablarni bajarish uchun mashq; - o'qishdagi rag'bat; - o'qishdagi kamchilik uchun tanbeh	- g'oliblarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish; - o'quvchilarning ishlab chiqarish vositalarini mustaqil boshqarishga intilishlarini rag'batlantirish; - ish joyidagi xulqini rag'batlantirish
II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'quv-bilish faoliyatining mo'ljal asoslarini vujudga keltirish metodlari	O'quv-bilish faoliyatini bajarish metodlari	Mehnatda va mehnatda nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari
Og'zaki: - hikoya; - suhbat; - tushuntirish; - ma'ruza; - yo'riqnoma	Amaliy: - mashq; - o'quv-ishlab chiqarish tajribasi; - o'quv-unumli mehnat; - kitob bilan ishlash; - yozma ish	Og'zaki: - individual so'rov; - yalpi so'rov; - dasturli og'zaki so'rov
Ko'rsatmali: - illyustrasiya; - namoyish	Izlanuvchi: - qisman-izlanuvchi - tadqiqotchilik; - algoritmlik; - tashxisli	Yozma: - nazorat-yozma ish; - yozma sinov (test); - yozma imtihon; - dasturli yozma sinov (test); - laboratoriya-amaliy; - nazorat laboratoriya ishi; - mashinali nazorat; - unumli mehnatni son

		va sifat jihatdan baholash
II. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari		
Bilish faoliyatini kuzatish metodlari: -bevosita; -bilvosita yo'riqnoma yordamida; -o'z-o'zini nazorat Nazorat metodlari: -o'qituvchi topshiradi; -dasturli qo'llanmadan foydalaniladi; -ta'limning texnik vositalari yordamida O'quv faoliyatini tuzatish (korreksiya) metodlari: -tezkor; -yakuniy natija bo'yicha; - foiz ko'rsatkichi bo'yicha		

Shunday qilib, taqdim etilayotgan ta'lim metodlari tizimi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan va mazkur tizim yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi.

3. Ta'lim metodlari va vositalarining xususiyatlari

Birinchi guruh ta'lim metodlari: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1- darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi metodlar.

Ma'ruza – davomli vaqt ichida o'qituvchi tomonidan katta hajmdagi o'quv materialining monologik bayon qilishi

Metodning asosiy vazifasi - ta'lim berish. *Belgilari:* qat'iy tuzilma, og'zaki-mantiqiy bayon qilish, berilayotgan axborotning ko'pligi.

Ma'ruzalar muhim lahzalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkillashtirish metodining samaradorlik shartlari quyidagilardan iborat:

- ✓ ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- ✓ ta'lim oluvchilarga ma'ruza mavzusining maqsadi, vazifalari va rejani eshittirish;
- ✓ har bir rejani yoritgandan so'ng qisqa umumlashtiruvchi xulosalarni shakllantirish;
- ✓ ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tganda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash;
- ✓ yozib olish uchun zarur joylarni ajratib ko'rsatish (aytib turish);
- ✓ uning alohida holatlari batafsil ko'rib chiqiladigan seminar, amaliy mashg'ulotlar bilan ma'ruzaning to'g'ri kelishi.

Hikoya - hodisa, voqeya, haqiqat to'g'risida o'qituvchining monologik xabar berishi odatda u nazariy holatlarni aniqlashtirish, o'rganayotgan materialga qiziqishni uyg'otish uchun qo'llaniladi.

Hikoya qilishga asosiy talab-materialni hissiy yetkazib berish, san'atkorona, ta'sirchan bayon qilish.

Tushuntirish – bayon qilinayotgan materialning turli holatlarini xona doskasiga yozib tushuntirish, tahlil qilish, izoh berish va isbotlash orqali o'quv materialini bayon qilish

Yo'riqnoma berish – kasbiy tayyorgarlikda keng foydalaniladigan mustaqil metod bo'lib, u talabalarga aniq harakatlarning vazifalarini, ularni amalga oshirish

yo'llarini, amaliy topshiriqlarni yechish talablarini, ko'nikmalardan iborat harakatlar tartibini, ma'lum turga xos bo'lgan vaziyatlar tavsifi va ularni amaliyotda qo'llashni tushuntirish

O'quv jarayonidagi o'rniga ko'ra yo'riqnoma berish uch turda bo'ladi:

- 1) kirish yoki yo'l-yo'riq berish;
- 2) joriy;
- 3) yakuniy.

Kirish yo'riqnomasini berish quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- talabalarga bajariladigan ish mazmuni, pedagogik o'zaro harakatning metod, vosita va shakllarini, texnik hujjatlar va yakuniy natijaga, mehnat mahsuliga bo'lgan talablarni yetkazish;
- ish bajarish qoidasi va izchilligi, alohida harakatlar, metodlarni tushuntirish;
- qiyinchiliklar, xatoliklar, mehnat xavfsizligi to'g'risida ogohlantirish.

Joriy yo'riqnoma berish quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- ishni bajarishga qiynalayotgan talabalar ishini to'g'rilash;
- har bir talaba ishini kuzatish;
- ish turlarini bajarish va ish natijalari vaqtidagi mustaqillikni o'rnatish.

Yakuniy yo'riqnoma berish quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- jamoaviy va guruhli mehnat natijalarini baholash;
- o'quv – bilish faoliyatning mustaqillik darajasi;
- mehnat harakatlarini bajarishdagi alohida kamchiliklarni aniqlash;
- kasbiy muhim sifatlar, ko'nikma, o'zini tutishning odob–ahloqiy me'yorlarini shakllanganligi;
- baholar bilan tanishtirish.

Yo'riqnoma berish shakliga ko'ra og'zaki, yozma, ko'rgazmali va aralash bo'lishi mumkin. Yozma yo'riqnoma berishda eng katta samaraga erishish mumkin bo'lib, bunda turli yo'riqnomali, ishlab chiqarishli, o'quv–ishlab chiqarishli va o'quv–uslubiy hujjatlardan (yo'riqnomali, texnologik, yo'riqnomaviy–texnologik va harakatlar xaritasi, ishlar tartibi, qoidasi) foydalaniladi.

Texnologik va yo'riqnomaviy–texnologik xaritalar o'quv–ishlab chiqarishli ishlarni bajarishda qo'llaniladi. Ular texnologik izchillikdan tashqari, texnologik

talab, tartib, umumiy ishlarni bajarish vositalari, ishlarni bajarish qoidasining yo'riqnomali bayonidan iborat bo'ladi.

Harakatlar xaritasi va ishlar tartibidan yozma yo'riqnoma berish: xizmat ko'rsatish, nosozliklarni tashxislash, murakkab jihozlarni sozlashni o'rgatishda foydalaniladi. Ular ishlab chiqarish faoliyatida bajariladigan turli ishlab chiqarishli ko'rsatma va qoidalarni o'z ichiga oladi. Ish o'rnida har bir talabani yozma yo'riqnomadan foydalanishi eng samarali hisoblanadi.

Namoyish - ta'lim oluvchilarni obyekt va hodisalar, jarayonlarni ularning tabiiy ko'rinishda ko'rgazmali-hissiy tanishtirish

Bu metodning yetakchi vazifasi o'qitish hisoblanadi. Biz namoyishdan o'rganilayotgan hodisalar, o'zgaruvchanlikni ochib berish uchungina foydalanamiz, shu bilan birga bu metod ta'lim oluvchilarni narsalarni tashqi ko'rinishi bilan uning ichki tuzilishi yoki o'xshash narsalar qatorida tutgan o'rni bilan tanishish uchun xizmat qilishi mumkin.

Namoyishni ko'rib chiqilayotgan obyektни yozuv taxtasida sxemali rasm chizish yoki ko'rsatish, chizmalarni chizib olib borish mumkin, bu namoyish etilayotgan obyekt asosidagi tamoyillarni tushunishni yengillashtiradi.

Namoyish metodining ta'limiy vazifasi samaradorligi quyidagilarni bajara olishni ta'minlaydi:

- obyektlarni to'g'ri tanlash;
- ta'lim oluvchilar e'tiborini namoyish qilayotgan hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirish;
- ta'lim oluvchilar namoyish qilinayotgan obyektни yaxshi ko'rishlari va imkon bo'yicha na faqat ko'z, balki barcha sezish a'zolari bilan qabul qilish;
- ta'lim oluvchilar e'tiborini imkoni boricha o'rganilayotgan obyektning muhim tomonlariga jalb etish;
- ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan obyekt sifatlarini mustaqil baholash.

Ko'rsatish narsa, jarayon va hodisalarni ularni tasviriy ko'rinishda ko'rsatish va qabul qilishni ko'zlaydi

Bu metodning asosiy vazifasi - o'rgatish. Ko'rsatishning vositalariga sxemalar, jadvallar, rasmlar, sur'atlar, albomlar, xaritalar, yassi modellar xizmat qiladi.

Videometod. Ko'rish metodi axborotni ko'proq ko'rgazmali kodoskop, proyektor, kinoapparat, o'quv televideniyalar, shuningdek axborotni displey bilan aks ettiruvchi kompyuterlar bo'yicha qabul qilishga asoslanadi

Ikkinchi guruh ta'lim metodlari

Ikkinchi guruh amaliy ta'lim metodlari: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, metodlar

Китоб билан ишлаш усули: таълим бериш, тарбиялаш, ривожлантириш ва кизиштириш вазифаларини бажаради

Ta'lim oluvchilar kitob bilan ishlashlari mumkin:

- o'quv mashg'ulotida sizning rahbarligingiz ostida;
- uyda mustaqil.

Uyda kitob bilan ishlash vazifasini o'quvchilar oldiga qo'yishdan avval kitob bilan mustaqil ishlash metodlariga ega ekanliklariga ishonch hosil qiling:

- uning tuzilishi bilan tanishish;
- ko'z yugurtirib chiqish;
- alohida boblarni o'qish;
- savollarga javob qidirish;
- referat yozish;
- tayanch konspektlar tuzish;
- mantiqiy tuzilmaviy chizmalarni tuzish;
- misol va topshiriqlarni yechish, mashqlarni bajarish;
- nazorat testlarini bajarish;
- materialni xotirada saqlash.

Agarda ish o'quv mashg'ulotida olib borilsa, unda kitob bo'yicha o'rganadigan materialni biz alohida qismlarga bo'lamiz va ularni nazorat qilamiz.

LABORATORIYA METODI

Лаборатория усули - бу шундай усулки, бунда таълим олувчилар таълим берувчи раҳбарлиги остида ва олдиндан тайёрланган режа бўйича тажрибалар ўтказадилар ёки амалий топшириқларни бажарадилар, шу жараёнда янги билимларни қабул қиладилар ва англаб етадилар

Metodning asosiy vazifalari - o'rgatish va rivojlantirish. Bu metod ta'lim oluvchilarga quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- jihoz bilan ishlash malaka va ko'nikmalarini egallash;
- ma'lum bo'lganlarni tekshirish va mustaqil tadqiqot yo'llarini tanlash;
- amaliy malakalarni egallash: o'lchash va hisoblash; natijalarni qayta ishlash va avvalgilari bilan solishtirish.

Laboratoriya metodi murakkabdir. U maxsus, qimmatli jihozlarning bo'lishi, nafaqat sizni, balki ta'lim oluvchilarning ham puxta tayyorgarligini talab etadi. Undan foydalanish kuch va vaqtni sarflash bilan bog'liq. Shuning uchun, tajriba metodini rejalashtirayotganda, mustaqil tadqiqotning ta'lim samaradorligini oshirishga ishonch hosil qilish zarur, chunki bunga boshqa soddaroq, tejamliroq metodlar bilan erishish mumkin.

MASHQ - o'rganilayotgan materialni amaliyotda qo'llash maqsadi bilan muntazam tashkillashtirilgan ko'p takrorlanuvchan harakat

Metodning *asosiy vazifasi* - ta'limiy va rivojlantiruvchi.

Mashqning quyidagi turlari mavjud:

- maxsus;
- sharhlashga oid;
- yozma;
- og'zaki;
- ishlab chiqarish.

Uchinchi guruh ta'lim metodlari

Uchinchi guruh ta'lim metodlari: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, metodlar.

Сухбат – диалогли (юнонча: dialogos - икки ёки бир неча инсонлар орасидаги сўзлашув), таълим бериш ва ўрганишнинг савол–жавобли йўли
--

Metodning yetakchi vazifasi - qiziqtirish: maqsadga yo'naltirilgan va mohirona qo'yilgan savollar yordamida ta'lim oluvchilarda berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini eslash va bayon qilishga harakat qilinadi, o'qituvchi rahbarligida boshqa ta'lim oluvchilar bilan muhokama qilinadi. Ta'lim oluvchilar o'qituvchi bilan birga qadamma-qadam mustaqil fikrlash, yakunlash, xulosalash va umumlashtirish yo'li bilan yangi bilimlarni anglaydilar va o'zlashtiradilar.

Suhbatning afzalligi yana shundaki, u ta'lim oluvchilar fikrlashini faollashtiradi va bilim kuchini rivojlanishiga yordam beradi.

Suhbatlar vazifasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- kirish yoki tashkillashtiruvchi (didaktik vazifasi: ta'lim oluvchilarni mashg'ulotdagi ishga tayyorlash);
- yangi bilimlarni yetkazish (didaktik vazifasi: ta'lim oluvchilarni yangi material bilan tanishtirish);
- sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi: ta'lim oluvchilar bilimlarini tizimlashtirish, "mustahkamlash", eslab qolishi va fikrlashi).

Suhbatlar tashkiliy shakli bo'yicha o'quv va "davra suhbatiga" bo'linadi.

"Davra suhbat" o'quv suhbatidan erkin holatda ishtirokchilar joylashish tartibi va asosiysi, ular fikrini navbat bilan bildirishi bilan farqlanadi.

Eng muhimi savollarni to'g'ri shakllantirish va berish. Ular o'zaro mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lishi kerak, o'rganilayotgan savol mohiyatini ochib berishi, tizimda bilimlarni o'zlashtirishga yordam berishi kerak. Savollar mazmuni va shakliga ko'ra ta'lim oluvchilarning rivojlanish darajasiga mos kelishi lozim.

Esda tuting: oson savollar faol bilish faoliyatini rag'batlantirmaydi, jiddiy munosabat esa bilishga rag'batlantiradi.

Suhbatning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik	Suhbatning mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi, asosiy	

	va yordamchi savollarni shakllantiradi, uni tashkillashtirish va olib borishni o'ylab chiqadi: savollarni berish tartibi, qanday bog'liq holatlar bo'yicha umumlashtirish va xulosalar qilish lozimligi va boshq.	
2-bosqich. Suhbatga kirish	Qisqa shaklda o'quv suhbatining mavzusi, uning vazifalarini eshittiradi, ushbu mavzu bo'yicha ega bo'lgan bilim va malakalarni eslatadi. Suhbat davomida ta'lim oluvchilarning alohida mulohazalarini umumlash-tiradi. Suhbatda hamma ta'lim oluvchilar faol ishtirok etishlariga harakat qiladi.	
3-bosqich. Suhbat	To'g'ri javoblarni ma'qullaydi, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmaganlarni sharhlaydi, aniqlaydi. Noto'g'ri javob bergan ta'lim oluvchining o'ziga xatosini topishni taklif qiladi. Agar u buni qila olmasa, boshqa ta'lim oluvchilarni yordamga chaqiradi	Savollarni diqqat bilan tinglaydilar, javob beradilar, o'zgalar javoblarini tahlil qiladilar, o'zlarining shaxsiy mulohazarini aytadilar
4-bosqich. Xulosa	Metodlardan birini tanlab, suhbat natijalarini umumlashtiradi: o'zi yakun yasaydi; yo'naltiruvchi savollar yordamida suhbat natijalarini "yig'adi"	
5-bosqich. Yakunlash	Yakun yasaydi: ta'lim oluvchilarning faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi	O'z-o'zlarini baholaydilar

Bu metoddan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ✓ yangi bilimlarni shakllantirishda;

- ✓ ta'lim oluvchilar u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, ularning mohiyatiga kirishni ta'minlashda;
- ✓ ta'lim oluvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib yetishga o'rgatishda;
- ✓ o'zaro fikr almashinuv ko'nikmalarni shakllantirishda;
- ✓ ta'lim oluvchilarga shaxsiy fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishiga yordam berish.

Munozara erkin bo'ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo'lishi mumkin. U faqat o'zlashtirish lozim bo'lgan mavzu va savollarga taalluqli bo'lishi kerak.

Ma'ruzada boshqariladigan munozaraning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik	Munozara mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi, natijalarni shakllantiradi; “Munozara ishtirokchisiga eslatma” plakat/slaydni rasmiylashtiradi; munozarani kerakli maromda ushlab turadigan savollar va oraliq xulosalarni tayyorlaydi; uni o'tkazish tartibi va tashkillashtirishni loyihalaydi: munozarani qanday va nimadan boshlash; unda barcha ta'lim oluvchilar ishtirokini qanday ta'minlash; munozarani qanday yakunlash va oxirgi xulosalarni aniq shakllantirish	
2-bosqich. Kirish	Mavzuni e'lon qiladi, uning tuzilishini bayon qiladi, o'zining mulohazalarini bildiradi va ta'lim oluvchilarga o'zlarining fikrlarini bayon qilishni taklif etadi. Munozara boshlanishini qiziqtirish uchun, tayyorlab qo'yilgan bir necha savollarni beradi	
3-bosqich. Asosiy qism	Munozarani qiziqtiradi, ishtirok-chilarni qoidani bajarishlarini ta'minlaydi	Takliflar kiritadilar, muhokama qiladilar
4-bosqich. Yakuniy-tahliliy	Munozara so'nggida qisqacha va bahosiz bog'liqli savollarni ajratadi va tuzilmaga soladi, xulosalaydi	Tinglaydilar, baholar bilan tanishadilar

Seminar - munozaraning texnologik xaritasi

Ish bosqich-lari va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik.	Seminar mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi; ta'lim oluvchilar munozarada erishishi mumkin bo'lgan, natijlarni shakllantiradi; munozarada muhokama qilish muhim bo'lgan muammoni ajratadilar, ma'ruzachi va ishtirokchi uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini shakllantiradi.1) seminar olib boruvchisi, 2) e'tirozchi va taqrizchilarni, 3)mantiqchi, 4)ruhshunos, 5) ekspertlarni belgilaydi va ularga tayyorgarlikda yordam beradi. Munozara o'tkazish tartibi va tashkillashtirishni dasturlashtiradi	Seminar boshlovchisi ta'lim oluvchilardan biriga seminar mavzusi bo'yicha ma'ruza qilishni topshiradi
2-bosqich. Kirish	Seminar mavzusini e'lon qiladi, seminar olib boruvchini tanishtiradi	Olib boruvchi ma'ruzachi, e'tirozchi, taqrizchi, mantiqchi, ruhshunos va ekspertlarni tanishtiradi
3-bosqich. Asosiy qism	Savollar beradi, alohida bildirishlar qiladi, ma'ruzaning asosiy holatini aniqlaydi, fikrlashdagi qarama-qarshiliklarni cheklaydi. Gapirilayotgan fikrlarda erkinlik va qiziquvchanlikni namoyon qiladi, muammoning ishonchli bayonini ishlatadi	Ma'ruzadan so'ng olib boruvchi e'tirozchi va taqrizchilarga so'z beradi. Ishtirokchilarni "Munozara ishtirokchilari eslatmasi" bilan tanishtiradi va munozara boshlanishini

		e'lon qiladi
4-bosqich. Yakuniy- tahliliy	Munozara yuzasidan qisqa va bahosiz bog'liqli savollarni ajratadi va tuzilmaga keltiradi. Yakuniy xulosa-larni shakllantiradi. Ishtirokchilarga baho beradi	Olib boruvchi e'tirozchi, taqrizchi, mantiqchi, ruhshunosga so'z beradi

Seminar - munozaraning vazifali vositasi

Olib boruvchi - ta'lim beruvchining barcha majburiyatlarini oladi, muhokama borishiga rahbarlik qiladi, isbotlarni sharhlashi yoki tushuncha va atamlarni aniq ishlatishni, muomalani to'g'rilashni qaytaradi.

E'tirozchi/ Taqrizchi tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan olqishlash muolajasini keltirib chiqaradi.

Mantiqchi - ma'ruzachi yoki e'tirozchi fikrlashdagi qarama-qarshilik va mantiqiy xatolarni ajratadi, tushunchalardagi ma'nolarni aniqlaydi, isbot yoki qaytarish yo'lini, farazni harakatlanish ravonligini tahlil qiladi.

Ruhshunos - natijaviy muomalani tashkillashtirishga va o'zaro harakatga javob beradi, hamkorlikdagi harakatlarning kelishganligiga harakat qiladi, munozarani ziddiyatlarga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.

Ekspert - barcha munozaraning natijaviyligini, ilgari surgan faraz va takliflarning to'g'riligini, qilingan xulosalarni baholaydi, munozaraga hissa qo'shgan aniq ishtirokchilar to'g'risida fikrlarni gapiradi

Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo'l qo'ymay uni hal etishning ko'proq shaxsiy g'oyalarini yuzaga keltiradilar, so'ngra ko'proq oqilona/samarali/maqbul va boshqa g'oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu metod hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - ta'lim oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil

tushunish va yechishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta'sir ostida fikrlashdan ozod bo'lish va ijodiy topshiriqni yechishda birlamchi yo'l fikrlarini yengib o'tishni tarbiyalaydi.

An'anaviy ta'limda vazifani yechish vaqtida ko'pgina ta'lim oluvchilar o'z g'oyalarini aytishga botina olmaydilar. O'z takliflarining xatoligi va ta'lim beruvchining salbiy munosabatidan, boshqa ishtirokchilarning yo'q qilib yuboruvchi tanqidi va kulgisidan asosli qo'rqadilar.

To'rtinchi guruh ta'lim metodlari

To'rtinchi guruh ta'lim metodlari: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4 darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi metodlar.

LOYIHALAR METODI

Лойиҳалар усули билим ва малакаларни амалий қўллаш, таҳлил ва баҳолашни назарда tutuvchi majmuali ўқитиш усулини амалга оширади. Таълим олувчилар юқори даражада, бошқа ўқитиш усулларида фойдаланишга қараганда, режалаштиришда, ташкиллаштиришда, назоратда, таҳлил қилиш ва вазифани бажариш натижаларини баҳолашда иштирок этадилар

Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, balki jarayonining o'zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin.

Loyiha metodi qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik	Loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta'lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to'g'risida ma'lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini sanab o'tadi	Guruhga birlashadilar, loyiha mavzusini tanlaydilar va muhokama qiladilar. Kerak bo'lganda qo'shimcha axborotlar oladilar. Maqsadni aniqlaydilar, loyiha bo'yicha ish natijalarini muhokama qiladilar
1-bosqich. Rejalashtirish	G'oyalarni taklif etadi, takliflarni aytadi. Axborot manbai va uning yig'ish metodlari va tahlilini tavsiya etadi. Ish tartibi va oraliq bosqichlarni baholash mezonlari va umuman jarayonni belgilaydi	Harakat rejasini tanlaydilar: vazifalarni shakllantiradilar, yo'nalish va bajarish bosqichlarini, ular tartibini aniqlaydilar, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlaydilar. Ta'lim beruvchi bilan natijalarni tahlil etish metodini (hisobot shaklini) ma'qullaydilar
2-bosqich. Tadqiq qilish	Kuzatadi, maslahat beradi, axborot manbasini izlashga yordam beradi, o'zi axborot manbai hisoblanadi	Tadqiqotni bajaradilar. Axborot to'playdilar, oraliq vazifalarni yechadilar,
3-boskich. Axborot tahlili. Xulosalarni shakllantirish.	Butun jarayonni boshqaradi, qaytar aloqani ushlab turadi	Olingan axborotni tahlil qiladilar, xulosalarni shakllantiradilar

4-bosqich. Hisobot	Eshitadi, oddiy ishtirokchi bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan savollar beradi, quvvatlaydi va rag'batlantiradi	Hisob beradilar. Ish natijalarini: og'zaki hisobot materiallarini namoyish bilan og'zaki hisobot, loyiha ko'rinishida yozma hisobot shakllarida taqdim etadilar
5-bosqich. Jarayon va natijalarni baholash.	Muammoni yechishning to'liq darajasini, guruhlar harakati strategiyasi, ta'lim oluvchilar kuchi, manbalardan foydalanish sifati, ijodiy yondashuv, ishni davom ettirish imkoniyati, hisobot sifati va boshqalarni baholaydi	Jamoaviy muhokama orqali ish natijalari va uning borishi, shu jumladan muammoni yechishning to'liqlik darajasi va harakat strategiyasini himoya qiladilar, baholaydilar

KEYS-STADI

Таълим бериш вазияти- **кейс-стади** (case инглиз.- тўпلام, аниқ вазият, stadi-ўрганиш) – бу усул, одатий ҳаётни ташкиллаштирувчи вазиятларни яратувчи ва таълим олувчилардан мақсадга мувофиқроқ ечим излашни талаб қилувчи, ҳаётдан олинган одатий вазиятларни ташкиллаштириш ёки сунъий яратилган вазиятларга асосланади.

Кейс - таълим олувчиларни муаммони ифодалашни ва мақсадга мувофиқроқ ечим излашга йўналтирувчи, бир гуруҳ инсонлар ёки алоҳида шахсларни ҳаётда ташкиллаштиришдан олинган маълум шароитларини баёнли тақдим этилишидан иборат.

O'qitish vaziyatining dolzarbligi:

Аниқ вазият та'лим беришни ҳақиқийликка бог'лайди: keys та'лим олувчиларга вазиятни ташҳис қилиш, фарازلари ифодалаш, муаммоларни аниқлаш, қо'шимча ахборотларни йиғ'иш, фарازلарга аниқлик кiritиш ва муаммоларни yechиш bo'yича аниқ bosqichларни loyihalashда амалиy faoliyatларини modellashтириш imkonini beradi.

Keys та'лим олувчиларга tahlil иlish, tenglashtirish yo'llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi.

Keysni ko'rib chiqishда та'лим олувчилар та'лим olish jarayonini yaratadilar va jarayonda o'zaro harakatда haqiqiy fikr almashish holatларини yaratadilar.

Keys-stadi metodi qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg'ulotlarda tarqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (5 daq.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlanishiga ta'sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo'yicha tezkor-so'rov o'tkazadi (ilova). 2.2. Seminarda ishlash tartibi, baholash ko'rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alohida ishlash (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e'tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo'llarini aniqlashni, so'ngra uni yechish topshirig'ini	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag'ini to'ldiradilar,

	beradi	muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo'ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko'rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag'ini to'ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag'ini tayyorlash bo'yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o'zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi. Keys bo'yicha o'zining javobini havola qiladi (ilova)	Guruhlar taqdimot qiladilar Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

Xulosa

Ta'lim berish metodlarini tanlash va qo'llashda ko'pgina quyidagi didaktik omillarni e'tiborga olish muhim:

- *Maqsadni belgilash:* 1) ta'lim berish maqsadi, 2) pedagogik vazifalar, 3) o'quv faoliyat natijalari.
- *O'quv axborot mazmuni hajmi va murakkabligi:* maqsad va ushbu o'quv fanini xususiyati, shu tariqa bu fanni shunchalik murakkab deb qabul qilingan.
- *Ta'lim berish metodlarini o'quv axborotini egallashlariga ta'siri.* G. Mayerga muvofiq, 72 soatdan (uch sutkadan) o'tganda, ma'lumotni eshitish orqali qabul qilgandan so'ng tinglovchi xotirasida 10%; ko'rish orqali - 20%; ko'rib va eshitish orqali - 50%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada - 70%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlarni qo'llanilganda -90% axborot qoladi.
- *Ta'lim oluvchilarni o'quv imkoniyatlari:* tayyorgarlik darajasi, umumo'quv malakalarni shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yo'naltirilganligi, yoshi, ishlash qobiliyati, o'ziga xos imkoniyatlari va qobiliyatlari.
- *Vaqt sarfi:* 1) o'quv dasturida yil davomida o'quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt, shunchalik cheklangan bo'lishi mumkinki, bu esa ko'p vaqt oladigan metodlarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llash imkonini beradi; 2) vaqt u yoki boshqa metodni tayyorlash va amalga oshirishda mehnat sarfini ketish nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. Shu bois, bunday metodlarni qo'llashni rejalashtirishda, o'zidan ushbu tashkillashtirish yo'lini amalga oshirishga zarur tayyorgarlikka vaqt va kuch yetarli bo'ladimi? deb so'rash kerak.
- *Ta'lim berish sharoiti:* ba'zi metodlarni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar talab etiladi: ta'lim berishning texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnitli yozuv taxtasi, maxsus jihozlangan xona va boshq.
- *Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi, jamoadagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari* (hamkorlik yoki so'zsiz bo'ysunishli).
- *Ta'lim oluvchilar soni:* agarda u katta bo'lmasa, ta'lim berishni faol ta'lim metodlarni qo'llab, jadallashtirish mumkin.

- *Ta'lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatlari:* ma'qul deb topilgan metodlarni qo'llashni bilishi va uddalashi, talablarga mos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». T.: O'zbekiston.-1998y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza 2000 y. 22 yanvar. T.: O'zbekiston. - 2000.
4. Qodirov B. «Ta'lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo'nalishlar». T.: O'zbekiston - 2000 y.
5. Tojiyev., Saloxitdinov R., Barakayev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2001.
6. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan. 2000.
7. Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – T.: 2002.
8. Yo'ldoshev J. G'. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. – Xalq ta'limi jurnali, 1999, №4, 4-12 betlar.
9. Xo'jayev N.X., Xodiyev B.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Fan.2002.
10. Ye.N. Pronina, V.V.Lukashevich. «Psixologiya i pedagogika». Uchebnik dlya studentov VUZov. Izdatelstvo Elit. Moskva 2004.
11. Ahmedov Sh. «Uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integrasiyalashuvi». T.: 2001. Magistrlik dissertasiyasi.
12. Shamsiyev Q. «Darslarni zamonaviy tashkil etishning shakl va uslublari». T.: 2005.(B.M.I.)
13. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: «Iqbol-Turon» nashriyoti. 2006 y.

www.ziynet.uz

www.mip.uz

www.pedagog.uz

www.ref.uz